

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI  
MAKTABGACHA VA MAKTAB TA'LIMI VAZIRLIGI  
OLIY TA'LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI

**60112200–Jismoniy madaniyat bakalavriat ta'lif  
yo'naliishing**

**MALAKA TALABLARI**

Toshkent-2023

## **ISHLAB CHIQILGAN VA KIRITILGAN:**

- Nizomiy nomidagi Toshkent davlat pedagogika universiteti.

## **TASDIQLANGAN VA AMALGA KIRITILGAN:**

O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lif, fan va innovatsiyalar vazirligining  
2023-yil «7» 08 dagi 344-sonli buyrug'i bilan tasdiqlangan.

## **JORIY ETILGAN:**

O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lif, fan va innovatsiyalar vazirligi hamda  
Maktabgacha va maktab ta'lif vazirligi.

Mazkur Malaka talablari "Oliy ta'lif davlat ta'lif standarti. Asosiy qoidalar", "Oliy ta'lif davlat ta'lif standarti. Oliy ta'lif yo'nalishlari va mutaxassisliklari klassifikatori", O'zbekiston Respublikasi Milliy va tarmoq malaka doiralari (ramkasi), kasbiy standartlar va kadrlar buyurtmachilari takliflariga muvofiq ishlab chiqilgan va rasmiy me'yoriy-uslubiy hujjat hisoblanadi.

O'zbekiston Respublikasi hududida Malaka talablarini rasmiy chop etish huquqi O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lif, fan va innovatsiyalar ta'lif vazirligiga tegishlidir.

## MUNDARIJA

1.	60112200-Jismoniy madaniyat bakalavriat ta'lif yo'naliishing umumiyl tafsisi .....	4
1.1.	Qo'llanish sohasi.....	4
1.1.1.	60112200-Jismoniy madaniyat ta'lif yo'naliishi Malaka talabining qo'llanilishi.....	4
1.1.2.	Malaka talablarining asosiy foydalanuvchilar.....	4
1.2.	60112200-Jismoniy madaniyat yo'naliishi bo'yicha bakalavrular kasbiy faoliyatlarining tasnifi .....	4
1.2.1.	60112200-Jismoniy madaniyat ta'lif yo'naliishi bo'yicha bakalavrular kasbiy faoliyatining sohalari.....	5
1.2.2.	60112200-Jismoniy madaniyat ta'lif yo'naliishi bo'yicha bakalavrular kasbiy faoliyatlarining obyektlari .....	5
1.2.3.	60112200-Jismoniy madaniyat ta'lifm yo'naliishi bo'yicha bakalavrular kasbiy faoliyatlarining turlari.....	5
1.2.4.	60112200-Jismoniy madaniyat ta'lifm yo'naliishi bo'yicha bakalavrularning kasbiy vazifalar.....	6
2.	60112200-Jismoniy madaniyat ta'lif yo'naliishi bo'yicha bakalavrularning kasbiy kompetensiyalariga qo'yiladigan talablar.....	8
2.1.	Umumiy kompetensiyalar.....	8
2.2.	Kasbiy kompetensiyalar .....	8
2.3.	Umumiy va kasbiy kompetensiyalarni egallashni ta'minlaydigan fanlar va amaliyotlarga qo'yiladigan talablar.....	9
2.4.	Kvalifikatsiya.....	11
	Bibliografik ma'lumotlar.....	12
	Kelishuv varag'i.....	13

## **1. 60112200-Jismoniy madaniyat bakalavriat ta'lif yo'nali shining umumiy tafsifi.**

*60112200-Jismoniy madaniyat* ta'lif yo'nali shi bo'yicha bakalavrular tayyorlash milliy malaka ramkasi, kasb standartlari, kadrlar buyurtmachilari talab va ehtiyojlaridan kelib chiqib amalga oshiriladi.

Barcha ta'lif shakllari bo'yicha o'qitish kredit-modul tizimi asosida tashkil qilinadi. Kunduzgi ta'lifda bakalavriat dasturining me'yoriy muddati 3 yil.

### ***1.1. Qo'llanish sohasi.***

#### ***1.1.1 60112200-Jismoniy madaniyat ta'lif yo'nali shi Malaka talabining qo'llanilishi.***

Malaka talabi 60112200 - Jismoniy madaniyat ta'lif yo'nali shi bo'yicha bakalavrular tayyorlash o'quv reja va fan dasturlarining o'zlashtirilishini amalga oshirishda O'zbekiston Respublikasi hududidagi barcha pedagogika sohasida kadr tayyorlaydigan oliy ta'lif muassasalarini uchun talablar majmuini ifodalaydi.

#### ***1.1.2. Malaka talablarining asosiy foydalanuvchilarini:***

60112200-Jismoniy madaniyat ta'lif yo'nali shi bo'yicha fan, texnika va ijtimoiy soha yutuqlarini hisobga olgan holda o'quv reja va fan dasturlarini sifatlari ishlab chiqish, samarali amalga oshirish va yangilash uchun mas'ul oliy ta'lif muassasalarining professor - o'qituvchilar;

- ta'lif yo'nali shining o'quv reja va fan dasturlarini o'zlashtirish bo'yicha o'quv-tarbiya faoliyatini samarali amalga oshiruvchi talabalari;
- o'z vakolat doirasida bitiruvchilarning tayyorgarlik darajasiga javob beradigan oliy ta'lif muassasalarining boshqaruv xodimlari (rektor, prorektorlar, o'quv bo'limi boshlig'i, dekanlar va kafedra mudirlari);
- bitiruvchilarning tayyorgarlik darajasini baholashni amalga oshiruvchi Davlat attestatsiya va imtihon komissiyalari;
- oliy ta'lif muassasasini moliyalashtirishni ta'minlovchi organlar;
- oliy ta'lif tizimini akkreditatsiya va sifatini nazorat qiluvchi vakolatli Davlat organlari;
- kadrlar buyurtmachilari va ish beruvchi tashkilotlar;

#### ***1.2. 60112200-Jismoniy madaniyat ta'lif yo'nali shi bo'yicha bakalavrular kasbiy faoliyatlarining tafsifi.***

##### ***1.2.1. 60112200-Jismoniy madaniyat ta'lif yo'nali shi bo'yicha bakalavrular kasbiy faoliyatining sohalari:***

- umumiy o'rta ta'lif maktab o'qituvchisi kasb standartiga muvofiq umumiy o'rta ta'lifda jismoniy tarbiya fani o'qituvchisi maqomida pedagogik faoliyat olib borish;

- o'rta maxsus va professional ta'lifda jismoniy tarbiya fani o'qituvchisi

sifatida pedagogik faoliyat olib borish;

- O'zbekiston Respublikasi fanlar akademiyasi va tarmoq ilmiy-tadqiqot institutlarida hamda mustaqil tadqiqotchi sifatida ilmiy-pedagogik tadqiqot ishlari bilan shug'ullanish;

umumiyl o'rta ta'lism maktabi direktori kasb standartiga muvofiq ta'lism muassasasini boshqarish;

- umumiyl o'rta ta'lism maktabi, professional ta'lism muassasalari, oliy ta'lism muassasalarida laborant, kabinet mudiri sifatida faoliyat yuritish kabi kompleks masalalarni majmuasini qamrab oladi.

#### **1.2.2. 60112200-Jismoniy madaniyat ta'lim yo'nalishi bo'yicha bakalavrlar kasbiy faoliyatlarining obyektlari:**

- umumiyl o'rta, o'rta maxsus, professional ta'lism muassasalarida;

- Maktabgacha va maktab ta'limi vazirligi tizimidagi idoralarda;

- O'zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi va tarmoq ilmiy-tadqiqot institutlarida;

- davlat boshqaruv organlari, o'rta, o'rta maxsus kasbiy ta'limg davlat va nodavlat muassasalarida;

60112200-Jismoniy madaniyat ta'lim yo'nalishi bo'yicha bakalavriat bitiruvchilari o'qishni tamomlagandan so'ng, umumiyl o'rta, o'rta maxsus, professional ta'lism muassasalarida, maktabdan tashqari ta'lism muassasalarida jismoniy tarbiya fanlaridan zamonaviy pedagogik va axborot texnologiyalaridan foydalangan holda dars berish, O'zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi va tarmoq ilmiy-tadqiqot institutlarida, jismoniy tarbiya va sport muammolari bilan shug'ullanuvchi tashkilotlarda kompleks masalalarni yechish huquqiga ega bo'ladi.

#### **1.2.3. 60112200-Jismoniy madaniyat ta'lim yo'nalishi bo'yicha bakalavrlar kasbiy faoliyatlarining turlari:**

- *pedagogik;*
- *ilmiy-tadqiqot;*
- *ma'naviy-ma'rifiy;*
- *tashkiliy-boshqaruv;*

#### **1.2.4. 60112200-Jismoniy madaniyat ta'lim yo'nalishi bo'yicha bakalavrлarning kasbiy vazifalari.**

60112200-Jismoniy madaniyat ta'lim yo'nalishi bo'yicha Milliy malaka ramkasining 6-malaka darajasi hamda bakalavr kasbiy faoliyatlarining sohalari, obyektlari va turlariga muvofiq bakalavriat bitiruvchisi quyidagi kasbiy vazifalarni bajarishga qodir bo'lishi lozim:

##### **Pedagogik faoliyatida:**

- **o'quv jarayonini rejalashtirish:** DTS va O'D larining maqsadlariga muvofiq o'quv reja ishlab chiqish, o'quvchilarning ehtiyojlari va qiziqishlaridan kelib chiqib o'quv dasturlarini moslashtirish, darsning aniq maqsad va natijalariga ko'ra dars rejasini ishlab chiqish, differensial yondashuv asosida dars shakllari va usullarini rejalashtirish, o'quv, namoyish va tarqatma materiallardan foydalanishni rejalashtirish;

- **ta'lim samaradorligini ta'minlash:** dars maqsadlariga ko'ra o'quvchilar imkoniyatidan kelib chiqib vazifalarni belgilash, dars mavzusiga mos namoyish va tarqatma materiallardan foydalanish, darsda vaqt taqsimotini to'g'ri rejalashtirish, ta'lim jarayonida AKTdan unumli foydalanish, o'quvchilarning o'zlashtirish natijalariga ko'ra darsni tashkil etish va ta'lim berishdagi yondashuvlarning samaradorligini tahlil qilish, o'quvchilarning ta'limiylariga maqsadlari va yosh xususiyatlariga mos keladigan o'qitish usullari va yondashuvlarni tanlash, o'qitishning faol usullaridan foydalanish, o'quvchilarning asosiy kompetensiyalari va hayotiy ko'nikmalarini rivojlantirishga yo'naltirilgan usullardan foydalanish, o'quvchilarning jamoaviy va loyihaviy ishlarni tashkil etish, o'z-o'zini nazorat qilish ko'nikmalaridan foydalanish, o'quvchilarga differensial yordam berish, nazariya va amaliyot uyg'unligini ta'minlash, o'quvchilarni mustaqil fikrlash imkoniyatini yaratish, darsda motivatsiyaga erishish, sinfda samarali muloqotga erishish;

- **o'zlashtirishni baholash va qayta aloqani taqdim etish:** ta'lim natijalarini baholash uchun turli usul va vositalardan foydalanish, ta'lim natijalarini diagnostika qilish uchun turli usul va vositalardan foydalanish, ta'lim natijalarini tahlil qilish, dars rejasi va usullarini moslashtirishda tahlil natijalaridan foydalanish, baholash mezonlarini bilishi va amalda qo'llay olishi, mavjud muammolarni aniqlay olishi va tahlil qilish.

- **tarbiyaviy faoliyatni tashkil etish:** tarbiyaviy ishlarning zamonaviy, interaktiv shakl va usullarini mashg'ulot hamda sinfdan tashqari ishlarda qo'llash, tarbiyaviy ishlarda o'quvchilarning jinsi, yoshi, madaniy va individual xususiyatlarini inobatga olishi, ta'lim muassasasining ustavi va ichki tartib qo'iadalariga muvofiq o'quvchilar uchun aniq odob-axloq qoidalarini o'rnatish, ijtimoiy sog'lom muhitni yarata olish, o'quvchilarda kognitiv faollik, mustaqillik, tashabbuskorlik, ijodkorlik fuqarolik pozitsiyasi, mehnatga layoqati, sog'lom va xavfsiz turmush tarzi madaniyatini rivojlantirish

- **xavfsiz rivojlantiruvchi ta'lim muhitini yaratish va ta'minlash:** O'quvchilar orasida o'zaro hurmat muhitini yaratish, o'quvchilarga sinf hayotida teng imkoniyatlar yaratса, nizoli vaziyatlarda optimal yechimli qaror chiqara olishi, o'quvchilar bilan individual ishlar olib borishi, zamonaviy ommaviy axborot vositalari dunyosida xavfsiz ishslashga yordam bera olish;

- **o'z-o'zini rivojlantirish va kasbiy o'sish:** muntazam malaka oshirish kursaridan o'tish, fanga oid adabiyotlar bilan tanishib, yangi bilimlarni amaliyotda qo'llash, kasbiy faoliyat yuzasidan seminar va treninglarda ishtirok etish hamda tashkil etish, o'zaro darslarda qatnashish, darslarni tahlil qilish, ochiq darslar o'tkazish, kasbiy faoliyatda kerakli o'zgarishlarni amalga oshirish;

- **hamkasblar va ta'lim oluvchilarning ota-onalari (ularning o'rnini bosuvchi shaxslar) bilan hamkorlik o'rnatish:** o'quvchilarning ota-onalarini (ularning o'rnini bosuvchi shaxslarni) ta'lim jarayoniga maktab hayotiga jalb qilish, o'quvchilarning ota-onalarini (ularning o'rnini bosuvchi shaxslarni) o'quvchilarni rivojlanishi va ta'lim muhiti to'g'risida qaror qabul qilishda ishtirok etishga jalb etish, tarbiyaviy muammolarni hal qilishda va o'quvchilarni hayotga tayyorlashda boshqa pedagogik xodimlar va mutaxassislar, jamoat tashkilotlari va bo'limlari

(Yoshlar ittifoqi) bilan hamkorlik qilish;

**Ilmiy-tadqiqot faoliyatida:**

- jismoniy tarbiya va sport sohasida ilmiy-tadqiqot institutlari va ilmiy markazlarda ta'lim yo'nalishidagi fanlar va ularni o'qitish metodikasiga oid mavzularda tadqiqot olib borish;
- jismoniy tarbiya va sport fanlariga doir internet tarmog'ida eng yangi ilmiy yutuqlar haqidagi ma'lumotlarni maqsadga yo'nalgan holda qidirish va topish hamda amaliyotga bevosita tadbiq etish;
- jismoniy madaniyat ta'lim yo'nalishlaridagi fanlarga oid ilmiy to'plamlar, mahalliy va chet el ilmiy-tadqiqot yutuqlarini o'rghanish;
- ilmiy-tadqiqot ishlanmalarini tayyorlash, soha adabiyotlari ekspertizasini amalga oshirishda qatnashish;
- ma'lumotlarni jamlash, qayta tayyorlash, mavzu bo'yicha ilmiy ma'lumotlarni tizimli tahlil qilish;
- jismoniy tarbiya va sportga doir tadqiqot natijalari va ishlanmalarini tatbiq etish qobiliyatlariga ega bo'lishi kerak.

**Ma'naviy-ma'rifiy faoliyatida:**

- o'quvchilarda masifikuraviy va axborot xurujlariga qarshi immunitetni yuzaga keltirish metod va texnologiyalarini bilishi;
- globallashuv sharoitida kechayotgan jarayonlarda axborot kommunikatsiya texnologiyalarining o'rni va ta'siri haqida tushuntirish ishlarini olib borish;

**Tashkiliy-boshqaruv faoliyatda:**

- pedagogik va axborot texnologiyalardan foydalangan holda ta'lim jarayonlari monitoringi va sifatini baholash mexanizmlarini ishlab chiqish;
- jamoada ijtimoiy va ma'naviy-ma'rifiy ishlarni tashkil etish va boshqarish;
- fikrlar har xil bo'lgan sharoitda to'g'ri qaror qabul qilish;
- bajarayotgan faoliyati bo'yicha ish rejasini tuzish, nazorat qilish va amalga oshirilgan ishning natijalarini baholash qobiliyatlariga ega bo'lish.

**2. 60112200-Jismoniy madaniyat ta'lim yo'nalishi bo'yicha bakalavrlarning kasbiy kompetensiyalariga qo'yiladigan talablar**

**2.1. Umumiy kompetensiyalar:**

- shaxsiy o'sishga intilishni shakllantirish va obyektiv baholash, shuningdek, ta'lim oluvchilarning intellektual rivojlanish darajasini oshirish ko'nikmalariga ega bo'lish;
- ijtimoiy va kasbiy vazifalarni hal etishda umumkasbiy va mutaxassislik fanlarning asosiy qoidalari va metodlaridan samarali foydalana olish;
- ona tilida o'z fikrlarini tizimli va erkin bayon etish, ilmiy matnlar bilan ishlash, ommaviy nutq so'zlash uchun ona tili va chet tillaridan birida yozma va og'zaki nutq ko'nikmalarini egallaganlik;

- axborotni olish, saralash, saqlash va qayta ishlash metod, usul va vositalaridan foydalanish va mediasavodxonlik; global kompyuter tarmoqlar bilan ishlash ko'nikmalariga egalik.
- ilmiy tadqiqotlarni tashkil etish, ilmiy bilish yutuqlariga erishish tamoyillarini anglash;
- gigiena, mehnat muhofazasi va tashqi ta'sirlardan himoya qilish qoidalari talablariga muvofiq, sog'lom turmush tarzi ko'nikmalarini shakllantirishga qobiliyatlilik.

## **2.2. Kasbiy kompetensiyalar:**

- yangi bilimlarni mustaqil egallay bilishi, o'z ustida ishlashi va mehnat faoliyatini ilmiy asosda tashkil qila olishi;
- inson organizimi, yosh fiziologiyasi, psixologiyasi va morfologiyasining salomatligiga oid bilimlarga ega bo'lishi;
- bolalar va turli yoshdagilarni jismoniy tarbiyasida jismoniy mashqlarni to'g'ri tanlash, me'yorlash va ulardan samarali foydalanish usullari va metodlarini bilishi;
- ta'lim muassasalarida va mahallalarda ommaviy jismoniy tarbiya va sport sog'lomlashtirish tadbirlarini tashkil etish hamda o'tkazishga doir bilimlarga ega bo'lishi;
- jismoniy tarbiya va sport sohasida ilmiy tadqiqotlar olib borishga oid dastlabki ma'lumotlarga ega bo'lishi;
- sport turlaridan mashg'ulotlar tashkil etish va o'tkazishga doir bilimlarga ega bo'lish;
- sport inshootlari va jihozlarining turlari, ulardan to'g'ri foydalanishga doir bilimlarga ega bo'lish;
- sog'lom turmush tarzi va unga amal qilish zaruriyati yuzasidan yetarlicha amaliy mälatkalarga ega bo'lishi;
- mahallalarda ayollar va xotin-qizlar sog'lom turmush tarzini tashkil qilish haqida nazariy hamda amaliy bilimlarga ega bo'lishi kerak.

## **2.3. Umumiylar umumiylar va kasbiy kompetensiyalarini egallashni ta'minlaydigan fanlar va amaliyotlarga qo'yiladigan talablar.**

Talabalar umumiylar umumiylar va kasbiy kompetensiyalar, bilim va ko'nikmalarni egallashi o'quv rejasiga mantiqiy ketma-ketligida kiritiladigan **majburiy va tanlov** fanlarini o'zlashtirish, amaliyotlarni o'tashi hamda boshqa o'quv mashg'ulot va akademik vazifalarni bajarish yordamida amalga oshiriladi.

Majburiy fanlar – bakalavriat ta'lim yo'nalishi bo'yicha bevosita umumiylar umumiylar va kasbiy kompetensiyalarini egallashga qaratilgan, zarur tayanch bilim va ko'nikmalarni ta'minlaydigan fanlar majmuasidir.

Tanlov fanlari – ta'lim yo'nalishi doirasida ixtisoslashuvdan kelib chiqib chuqurlashtirilgan, qo'shimcha bilim berish, bevosita ixtisosligi uchun zarur kompetensiyalarini kengaytirishga xizmat qiladigan, shuningdek, qo'shimcha kvalifikatsiya olishga xizmat qiladigan, talabaning shaxsiy qiziqishlari, ijodiy

**2.3.2. 60112200-Jismoniy madaniyat bakalavriat ta'lim yo'nalishi bo'yicha ta'lim dasturining tuzilishi:**

Fanning malakaviy kodi	O'quv fanlari, bloklar va faoliyat turlarining nomlari	Umumiy yuklama hajmi (soatda)	Umumiy yuklama hajmi (kredit)	Semes tri
	<b>Majburiy blok</b>	<b>4110</b>	<b>137</b>	
JMNMM109	Jismoniy madaniyat nazariyasi va metodikasi I	300	10	1,2
UmPsix110	Umumiy psixologiya	300	10	1,2
O'EYT105	O'zbekistonning eng yangi tarixi	120	4	1
GO'M19	Gimnastika va uni o'qitish metodikasi	270	9	1,2
MHO'M109	Milliy va harakatli o'yinlarni o'qitish metodikasi	270	9	1,2
MSVAX105	Mediasavodxonlik va axborot madaniyati	150	5	2
FAL104	Falsafa	120	4	1
AO'RT105	Amaliy o'zbek (rus) tili.	150	5	2
JMNMM208	Jismoniy madaniyat nazariyasi va metodikasi II	240	8	3,4
UmPedM208	Umumiy pedagogika	240	8	3,4
SpO'M208	Sport o'yinlari va uni o'qitish metodikasi II	240	8	3,4
SMO204	Sport mahoratini oshirish II	120	4	4
YAO'M209	Yengil atletika va uni o'qitish metodikasi	270	9	3,4
Din204	Dinshunoslik	120	4	4
SMO308	Sport mahoratini oshirish III	240	8	5,6
JTGSTBA304	Jismoniy tarbiya gigiyenasi va sportning tibbiy-fiziologik asoslari	120	4	5
STBMO'HQ304	Sport turlari bo'yicha musobaqlar o'tkazish va hakamlik qilish	120	4	6
KTO'MM308	Kurash turlari va uni o'qitish metodikasi	240	8	5,6
FUO'M308	Futbol va uni o'qitish metodikasi	240	8	5,6
UTTVZY304	Uzluksiz ta'liddagi tendensiyalar va zamонавиy yondashuvlar	120	4	6
SpO'M304	Sport o'yinlari va uni o'qitish metodikasi III	120	4	5
	Tanlov blok	<b>480</b>	<b>16</b>	<b>3-8</b>
	<b>Malakaviy amaliyot</b>	<b>810</b>	<b>27</b>	<b>2,3,4,5,6</b>
	<b>JAMI</b>	<b>5400</b>	<b>180</b>	

**2.4. Kvalifikatsiya:**

Pedagog. Jismoniy tarbiya fani o'qituvchisi.



yondashuvlari va iqtidorini qo'llab-quvvatlashga qaratilgan fanlar majmuasidir.

Ta'lim yo'nalishi bo'yicha quyidagi amaliyotlar o'tkaziladi:

malakaviy amaliyot – umumkasbiy va ixtisoslik fanlaridan nazariy bilimlarni mustahkamlash va amaliy (ishlab chiqarish) jarayonlari bilan uyg'unlashtirish, tegishli amaliy ko'nikmalar, kompetensiyalar va malakalarni shakllantirishga qaratiladi;

Kunduzgi ta'lim shaklida tahsil oluvchi talabalarning 4+2 tartibdagisi malakaviy amaliyoti 3-6 semestrlarda amalga oshiriladi. Bunda haftaning 4 kunida nazariy va amaliy ta'lim, 2 kunda amaliyot o'tkaziladi.

### 2.3.1. 60112200-Jismoniy madaniyat ta'lim yo'nalishi uchun ajratilgan o'quv fanlari, bloklar bo'yicha o'quv yuklamalari:

O'quv fanlari bloklari va faoliyat turlarining nomlari	Kunduzgi ta'lim shakli uchun fanlarga ajratilgan soat	Kunduzgi ta'lim shaklida ajratilgan kredit
Majburiy fanlar	4110	137
Tanlov fanlari	480	16
Malakaviy amaliyot	810	27
jami	5400	180

## Bibliografik ma'lumotlar

UDK 796

---

### Tayanch so'zlar:

Davlat ta'lif standarti, malaka talablari, o'quv reja, kompetensiya, modul, kasbiy faoliyat sohasi, kasbiy faoliyat obyekti, pedagog, jismoniy tarbiya fani o'qituvchisi, jismoniy madaniyat nazariyasi va metodikasi, sport o'yinlari va uni o'qitish metodikasi, yengil atletika va uni o'qitish metodikasi, gimnastika va uni o'qitish metodikasi, sport mahoratini oshirish, majburiy fanlar, tanlov fanlari, 4+2 amaliyot, kasbiy faoliyat turi, amaliyot, amaliyot obyekti, kadrlar sifati, yuklama, yuklama hajmi.

## Kelishuv varagi

Ishlab chiquvchilar, kelishilgan asosiy turdosh oliy ta'lim muassasalari  
hamda kadrlar iste'molchilari

ISHLAB CHIQILGAN:  
Toshkent davlat pedagogika universiteti



A.Kirgizbayev

M.O.

## KELISHILGAN:

O'zbekiston Respublikasi  
Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi  
huzuridagi Oliy ta'limni rivojlantirish



Sh.Yakubov

O'zbekiston Respublikasi Maktabgacha  
va maktab ta'limi vazirligi huzuridagi  
Respublika ta'lim markazi  
direktori Sh.Sattorov

2023-yil « \_\_\_\_ » \_\_\_\_\_

M.O.

Jizzax davlat pedagogika universiteti  
rektori Sh.Sharipov

2023-yil « \_\_\_\_ » \_\_\_\_\_

M.O.

Guliston davlat pedagogika instituti  
rektori v.b.  
A.Qalandarov



**Nizomiy nomidagi Toshkent davlat pedagogika universiteti  
60112200 – Jismoniy madaniyat ta’lim yo‘nalishi bo‘yicha malaka talablari va  
o‘quv rejasining ishlab chiquvchilar, turdosh oliy ta’lim muassasalari va  
asosiy kadrlar iste’molchilari o‘rtasida  
KELISHUV DALOLATNOMASI**

Toshkent sh.

“ ” 2023-yil

Biz quyida imzo chekuvchilar – O‘zbekiston Respublikasi Maktabgacha va maktab ta’limi vazirligi huzuridagi Respublika ta’lim markazi direktori Sh.Sattarov, Jizzax davlat pedagogika universiteti rektori prof. Sh.Sharipov, Toshkent davlat pedagogika universiteti rektori prof. A.Kirgizbayev birqalikda TDPUDA ishlab chiqilgan quyidagi bakalavriat ta’lim yo‘nalishining malaka talablari va o‘quv rejasi mazmuni bilan tanishib chiqib, kelishuv haqida ushbu dalolatnomani tuzdik:

**60112200 – Jismoniy madaniyat bakalavriat ta’lim yo‘nalishi.**

Malaka talablari hamda o‘quv rejani ishlab chiqilishida O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 20-apreldagi “Oliy ta’lim tizimini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida” PQ-2909-son, 2017-yil 27-iyuldagagi “Oliy ma‘lumotli mutaxassislar tayyorlash sifatini oshirishda iqtisodiyot sohalari va tarmoqlarining ishtirokini yanada kengaytirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PQ-3151-son, 2018-yil 5-iyundagi “Oliy ta’lim muassasalarida ta’lim sifatini oshirish va ularning mamlakatda amalga oshirilayotgan keng qamrovli islohotlarda faol ishtirokini ta’minlash bo‘yicha qo‘srimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi PQ-3775-son, 2022-yil 21-iyundagi “Pedagogik ta’lim sifatini oshirish va pedagog kadrlar tayyorlovchi oliy ta’lim muassasalarini faoliyatini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PQ-289-son hamda “Nizomiy nomidagi Toshkent davlat pedagogika universiteti faoliyatini takomillashtirish bo‘yicha qo‘srimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi PQ-290-son Qarorlariga, shuningdek, O‘zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi tomonidan 2021-yil 27-oktabrda hisobga olingan(hisob raqami 43) O‘zbekiston Respublikasi Oliy ta’lim vazirining 2021-yil 19-oktabrdagi “«Oliy ta’limning davlat ta’lim standarti. Asosiy qoidalar» O‘zbekiston Respublikasining Davlat standartini tasdiqlash to‘g‘risida”gi 35-2021-son buyrug‘i hamda oliy ta’lim sohasini tartibga soluvchi boshqa me’yoriy-huquqiy xujjatlar, shuningdek, xalqaro talablarga asoslangan.

Mazkur malaka talablari va o‘quv rejalarining ishlab chiqilishida asosiy kadrlar iste’molchilari tomonidan qo‘ylgan talablar ham inobatga olingan.

Ta’lim yo‘nalishi bo‘yicha malaka talablari o‘quv reja va fan dasturlari xamda boshqa hujjatlarni yaratish uchun bo‘lib hisoblanadi.

Ishlab chiqilgan malaka talablari va o‘quv rejani o‘rnatilgan tartibda tasdiqqa tavsiya etish mumkin.

**Maktabgacha va maktab ta’limi vazirligi huzuridagi  
Respublika ta’lim markazi direktori**

**Jizzax davlat pedagogika universiteti  
rektori, professor**

**Toshkent davlat pedagogika universiteti  
rektori, professor**



Sh.Sattarov



Sh.Sharipov

A.Kirgizbayev